



Received: July 14, 2024
Accepted: September 23, 2024
Available online: September 25, 2024

Malika Alimardonova

Mustaqil izlanuvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Malika Alimardonova

Independent Researcher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: malikaalimardonova87@gmail.com
ORCID iD: 0009-0006-7128-4209

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV MALAKASIINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN BAHOLASH

ASSESSMENT BASED ON COMPETENCY APPROACH IN IMPROVING ACADEMIC WRITING SKILLS IN ENGLISH OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

ANNOTATSIYA

ABSTRACT

Bugungi oliy ta’lim tizimiida baholashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko’tarish bo‘lajak mutaxassislarning yozuv malakasiini takomillashtirishda baholash xususiyatining o‘rnini aniq belgilashni nazarda tutadi. Shu jihatdan akademik mavzulardagi matnlarni tuzish hamda ularni amaliyotda qo‘llash jarayonida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining akademik yozuv malakasiini takomillashtirish va bu borada zamonaviy xorijiy tajribalarni qo‘llash hamda chet tilida yozuv malakasini baholash va nazorat qilish usullarini ishlab chiqish, akademik yozuv malakasining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va amaliyotda obyektiv baholash metodlaridan foydalanish zaruriyati mavjud.

Higher education institutions today must elevate education quality to international standards using modern assessment technologies. Thus, in developing academic texts, improving prospective English language teachers’ writing skills, applying contemporary foreign methods, and evaluating foreign language writing skills, it is essential to understand these characteristics and employ objective assessment methods.

Ushbu maqola-tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining akademik yozuv malakasini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan baholash metodi asosida takomillashtirishni o‘rganishdir. Mazkur maqsad doirasida quyidagi vazifalar amalga oshirildi: yozuv malakasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, yozuv malakasini baholash metodiga doir ilmiy-nazariy qarashlarning tahlillarini amalga oshirish, jumladan, yozuv malakasiini nazorat qilishda “rubric”, “checklist”, “rating scale” baholash jarayonlarining talabalar yozuv malakasini takomillashtirishda tutgan o‘rnini aniqlash, yozuv malakasini baholash tamoyillari, talabalarning

The objective of this research is to enhance the academic writing skills of future English language teachers based on competency-based assessment. Within this aim, the following tasks were undertaken: examining the pedagogical-psychological features of improving writing skills, conducting analyses of scientific and theoretical perspectives on the method of evaluating writing skills, including determining the role of “rubric”, “checklist”, and “rating scale” evaluation processes in the control of writing skills in improving students’ writing proficiency. The principles of assessment of writing skills were determined by providing comparative analyses of students’ opinions and solutions to students’ acquisition of skills.

To accomplish the tasks outlined in this research, the following scientific research methods were employed: theoretical (analytical-synthetic, comparative) and diagnostic (questionnaire) methods, as well as the method of summarizing the results. The findings of observation and analysis within the framework of this study

chet tilda yozuv malakasini o'zlashtirishlari bo'yicha fikrlarini, qiyosiy tahlillarni va ularning yechimlarini keltirish.

Xususan, ayni tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy), diagnostik (so'rovnoma) natijalarni umumlashtirish metodlari. Tadqiqot doirasidagi kuzatish va tahlil natijalari "Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)" ta'lim yo'nalishida amaldagi va taklif etilgan baholash amaliyotlarining farqli jihatlarini o'zida aks ettiradi. Jumladan, "Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)" ta'lim yo'nalishi talabalarining kam foizi yozma ish baholari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligini bildirdi.

Ayni natija subyektiv munosabatni aks ettirishiga qaramasdan, uning natijalari baholashni tashkillashtirishdagi quyidagi muammolarni yuzaga chiqaradi: mashg'ulot mobaynida o'zlashtirilgan bilim oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi natija olish uchun yetarli bo'lmaydi. Tajriba-sinov so'rovnomalarning tahlili natijalariga ko'ra aytishmumkinki, dasturlar, baholash mezonlari va qo'yiladigan talablar talabalarga semestr boshida taqdim qilinsa, ko'zlangan natijaga muayyan darajada erishiladi, bu esa ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: chet tilida yozuv malakasi, akademik yozuv, baholash metodikasi, takomillashtirish, baholash kompetensiyasi, oliy ta'lim, baholash mezonlari, analitik rubrika, ta'lim sifati, amaliy dars mashg'uloti.

KIRISH

Bugungi kunda chet tillarni o'qitishning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini, xususan, ularning yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash xususiyatlarini o'rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Baholashning yuqori darajada ishonchligini ta'minlash uchun har bir til ko'nikmasini alohida baholash zarurligi, chet tilini bilishning alohida jihatlarining o'ziga xosligini hisobga oluvchi turli usul va metodlarni joriy qilishga olib keladi. Har bir ko'nikmani baholash uchun tegishli shkalalar va baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim. Ta'lim jarayonida aniqlashtirilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazorat jarayonini to'g'ri tashkil etish, olib borish va natijalarni tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Ta'limdagi ushbu bosqichni to'laqonli amalga oshirish uchun pedagoglar kurs maqsadi bilan nazorat maqsadini uzviy bog'lashlari, shuningdek, nazorat turlarini tuzishda baholash

reflect the various aspects of the current and proposed evaluation practices in the study field of "Foreign language and literature (English)". A small percentage of the students in the study field of "Foreign language and literature (English)" reported insufficient information about written work evaluations.

Despite being subjective, this result highlights issues in assessment organization: the knowledge gained during training is insufficient for satisfactory intermediate and final evaluations. Analysis of pilot questionnaires suggests that presenting programs, evaluation criteria, and requirements to students at the semester's start positively impacts educational quality and partially achieves the intended outcome.

Key words: foreign language writing proficiency, academic composition, assessment methodology, enhancement, evaluation competence, tertiary education, assessment criteria, analytical rubric, educational quality, instructional session.

tamoyillari samaradorlik, ishonchlik, yaroqlilik, qayta aloqa va autentlilikka to'liq rioya qilishlari kerak bo'ladi.

Respublikamizda ham davlat siyosati fuqarolarning, birinchi navbatda, jamiyatda har bir shaxsni aqlan va ma'naviy tarbiyalashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim tizimi yordamida yetuk, rivojlangan, komil inson sifatida shakllanishini ko'zda tutadi [O'zRes PQ-5117-son qarori, 2021]. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilayotgan bu kabi keng ko'lamlı islohotlar natijasida minglab yoshlar qatori bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sifatida shakllanib kelayotgan talabalar ham muayyan mutaxassislik bo'yicha ta'lim olish bilan birga, chet tillarida muloqotga kirisha oladigan, barcha ko'nikmalarga ega kompetentli kadr bo'lib yetishib chiqishlari, ishlash faoliyatida malaka toifalarini olishga har tomonlama tayyor bo'lishlari shart.

Bugungi kunda yozma nutq tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda, ya'ni axborotni qabul qilish va uzatishda yozma muloqotning roli oshib bormoqda, bu esa yozma ravishda fikr bildirish ko'nikmasiga ega bo'lishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda chet tiliga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari talabalari akademik yozma muloqot uchun yozma nutqni yuqori darajada egallashlari kerak.

Eng avvalo, yozuv-kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosidir. Yozuvsiz ilm-fan, texnika va madaniyatning rivojlanishi mumkin emas, ijtimoiy taraqqiyot esa yuksalmas edi. Bundan tashqari, yozma ishlarsiz, barcha zamondagi bilim sohalari ega bo'lgan katta hajmdagi axborotni to'plash yoki uzatishning ham iloji bo'lmagan bo'lar edi.

Respublikamiz ta'lim tizimida ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishdagi eng qiyin yo'nalishlardan biri bu yozishni o'rgatishdir. Boshqacha qilib aytganda, yozuv tovushga emas, balki harfga asoslangan o'zining ichki tuzilishiga ega jarayondir. Sababi – bunda nafaqat talabaning til ko'nikmasi, balkim ijodiy fiklashi ham muhim rol o'ynaydi. Turli davlatlar tadqiqot ishlarida avval yozuv malakalari taraqqiyoti, keyin esa yozishni o'rgatishning samarali usullarini ishlab chiqishga jiddiy urinishgan. Ularning ta'kidlashicha, chet tilini o'qitishda yozuv ko'nikmasi juda muhimdir. Shuning uchun nafaqat uni o'rgatishning eng yaxshi usulini topish, balki uni muvaffaqiyatli takomillashtirish yo'llarini ham izlab topish kerak. Shu nuqtayi nazardan, R.Frimen va R.Lyuis nazarda tutganlaridek, "yozish jarayoni bu g'oyalarni yozma matnga tarjima qila olish mahorati" [Freeman & Lewis, 1998; 34] bo'lsa, mashhur tilshunos olim L.R. Zinder ta'limotida yozuv quyidagicha ta'rif olgan: "Yozma xat deganda, odamlar muloqot qila oladigan, makon va zamon chegaralari bilan chegaralanmagan shartli moddiy belgilar tizimi tushuniladi" [Zinder, 1979; 312]. Xorijiy tilda yozma mahorat respublikamiz olimlaridan F.Sh. Alimov tadqiqotida shunday talqin etiladi: "Yozuv barcha tillarda yozma grafik kodlardan tashkil topgan bo'lib, u axborotni yozma ravishda kodlashtirishning o'ziga xosligiga ega bo'lgan murakkab psixofiziologik faoliyati natijasida yozuv bilan yozma nutqqa differensial yondashuv talab etiladi" [Alimov, 2018; 10]. A.J. Najim esa "yozuv, bu – fikrlar va g'oyalarni o'qilishi mumkin bo'lgan shaklda yetkazish uchun belgilar, alifbo harflari, tinish belgilari va bo'shliqlardan foydalanish jarayoni va u tilni belgilar bilan ifodalashni o'z ichiga olgan insoniy muloqot vositasidir" degan fikrni ilgari suradi

[Najim, 2020; 4].

Yuqorida ta'kidlab aytilganidek, yozma nutq – tilning matn orqali ifodalanishi. Ushbu tahliliy qarashlardan keyin bizning fikrimizcha, yozma nutq – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozma nutq – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Ta'limda “yozuv” tushunchasi nima ekanligini aniqlab, biz yozuv nazariyasining predmetini aniqladik: bu til birliklarini bir butun yoki faqat ularning tovush sifatida grafik uzatishning mumkin bo'lgan vositalarining anglanilishidir. Bundan ko'rinib turibdiki, yozish bir necha bosqichlardan iborat murakkab jarayondir. Y.Y. Markovaning fikriga ko'ra ham yozish jarayoni uch bosqichga bo'linadi: rejalashtirish, loyihalash va qayta ko'rib chiqish [Markova, 2011; 22].

Darhaqiqat, chet tilida yozma topshiriqlarni bajarish qiyin bo'lishi hech kimga sir emas, chunki bu metakognitiv jarayon hisoblanadi. Bu aslida, o'qituvchilardan ham, talabalardan ham ko'proq diqqatni jamlashni va tushunishni talab qiladi. Biroq ta'lim jarayonida har ikkisining roli bir-biridan farq qiladi. O'qituvchining asosiy vazifasi talabalarni to'g'ri yozishga yo'naltirishdir, bunda natija yozish qobiliyatiga ega bo'lgan talabaga bog'liq. Demak, mazkur jarayon yozma topshiriqlarni baholashda yozish jarayonida talabani ish faoliyatini baholashga rahbarlik qiluvchi nazariyalar va amaliyotlar bilan shug'ullanadigan o'rganish sohasini anglatadi. N.Behizade va J.Engelhard buni shunday tushuntiradi: “Metodik nuqtayi nazardan talabalar o'rtasida grafik va imlo xatolarini farqlash muhim ahamiyatga ega”. Misol uchun, agar talaba “deer” so'zini eshitib, “dear” deb yozsa, unda bu imlo xatosi bo'ladi va agar “deer” so'zini eshitgandan keyin “dir” deb yozgan bo'lsa, unda bu holda grafik xato bor (chunki bu yerda u to'g'ri eshitganiga va noto'g'ri yozganiga amin bo'lamiz) [Behizadeh & Engelhard, 2011; 46]. Turli funksional va kommunikativ yo'nalishga ega bo'lgan yozma xabarlarining xilma-xilligi, mazmuni, kompozitsion tuzilishi va til shakli ularning qo'llanish doirasiga qarab tasniflanishi mumkin: *sohaga yo'naltirilgan yozuv (professional writing / business writing)*, *shaxsiy yozuv (personal writing)*, *ijodiy yozuv (creative writing)*, *ijtimoiy yozuv (social writing)*, *akademik yozuv (study writing / academic writing)* [Kolesnikova & Dolgina, 2008; 10]. Shu o'rinda biz akademik maqsadlar uchun ingliz tilida yozuv malakalari haqida ma'lumot berib o'tamiz. Bu tilni chuqurroq o'rganish yoki tadqiqot o'tkazish uchun zarur bo'lgan yozuv malakalaridir.

Yuqorida sanab o'tilgan yozuv turlaridan aynan akademik yozuv tushunchasiga to'xtalib o'tsak, ya'ni ushbu yozuv turi – bu universitetlarda va ilmiy nashrlarda qo'llaniladigan, mazmunida rasmiy ohangga ega bo'lgan yozuv hisoblanadi [Bailey, 2014; 4]. Unga insholar, rasmiy xatlar, ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va ilmiy nashr uchun boshqa hujjatlar kiradi. Ushbu turdagi yozuv har doim ham faktlarga asoslangan bo'lishi shart emas. Ammo bu imkon qadar obyektiv va xolis bo'lishi kerak. Akademik yozuvni shaxsiy yozuvdan farqli xususiyatlarini yoritishga harakat qildik.

1-jadval.

Akademik va shaxsiy yozuvning farqli jihatlari

Akademik yozuv	Shaxsiy yozuv
shaxssiz ohang bilan rasmiy yondashuv	rasmiy yoki norasmiy yondashuv
ilmiy manbalarga iqtibos keltiradi	ilmiy manbalarni talab qilmaydi
argumentlar, natijalar, baholar va dalillar asosida tuzilgan	tarkib shaxsiy tajribalardan iborat
diqqatli va ifodali tuzilgan	yaxshi va ma'noli tuzilgan

Talabalarda akademik yozuv malakalarini shakllantirish uchun ularga har bir individual yozish vazifasi uchun o'ziga xos uslublar va tuzilmalarini tanishtirish kerak bo'ladi. Buni amalga oshirishning ba'zi usullari:

- o'qituvchi/rahbarda mavzu doirasida qo'shimcha ma'lumot so'rash;
- o'z yo'nalishi bo'yicha eng nufuzli jurnallarda akademik maqolalarning yozish uslubini o'rganish;
- o'z yo'nalishi bo'yicha boshqa talabalarning muvaffaqiyatli yozishmalarini tahlil qilish.

Shunday qilib, akademik yozuv malakalarini to'laqonli o'zlashtirgan talaba kelajakda chet tili o'qituvchisi sifatida kompetentli yozma mahoratga ega kadr sifatida shakllanadi. Bunday kompetensiyaga ega bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kelajakda o'z ilmiy faoliyatlarini davom ettirishda hamda o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini takomillashtirish uchun eng yaxshi metod, usul va nazariyalarni topa biladi. Shu o'rinda, A.Fridman o'z qarashlarida "yozishni idrok etish, lingvistik va kognitiv murakkablikni o'z ichiga olgan ijodiy jarayon sifatida qaraladi, bunda yozuvchining faol va doimiy ishtiroki talab qilinadi" [Freedman et al., 2014] degan fikrlari tom ma'noda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nafaqat akademik yozma mahorat egalari bo'lishi, balki kommunikativ maqsadni anglagan holda yozish matnini bayon eta olish ko'nikmasi muhimligini nazarda tutadi. Yozuv turlarini darajalar bo'yicha ajratishda ma'lum bir urinish Y.I. Passov tomonidan amalga oshirildi. Y.I. Passov o'z ishida talaba yozma nutqini kommunikativ maqsadlar uchun tuzatish qobiliyatini rivojlantirish kerak degan xulosaga keladi [Passov, 2000; 175].

Mashhur metodistlar N.D. Galskova va N.I. Gez turli xil insholar (tavsiflovchi, tushuntiruvchi, insho-mulohaza) yozishni qayd etishadi, bulardan eng qiyini insho-mulohaza hisoblanadi, bunda talaba mantiqiy ketma-ketlikda butun qismlarini yoritib berishi lozim [Gal'skova & Gez, 2005; 334]. Insho-mulohazalar talabalarning dastlabki muhim tayyorgarligi, jumladan, insho rejasini tayyorlash, tezislar tuzish, bahslashish yoki o'z nuqtayi nazarini asoslash yoki bayon etilgan voqealarni baholash uchun nutq formulalarini tanlash, yakuniy qismni qisqacha xulosa shaklida tayyorlash bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda ahamiyatlidir.

Zamonaviy metodistlardan biri R.P. Milrud o'zining "Chet tili yozma nutqini o'qitish metodikasi" nomli asarida yozma nutq faoliyatini ajratib, uni "fikrni yozma ishda maqsadli va ijodiy bajarish", yozma nutq esa "yozma til belgilarida fikrni shakllantirish va takomillashtirish usuli" [Mil'rud, 1997] deb, belgilab beradi.

Akademik yozuvga o'rgatishda hal qilinadigan vazifalar akademik yozma ishlarni

o'rgatish mazmunini o'zlashtirish uchun sharoit yaratish bilan bog'liq. Bu vazifalar talabalarning zarur grafik avtomatizmini, nutq-fikrlash qobiliyatini va yozma uslubga muvofiq fikrni shakllantirish, bilim va fikrini kengaytirish, yozma ish mazmunini yaratish madaniyati va intellektual tayyorgarlikni egallash, yozma matnning mavzu mazmuni, nutq uslubi va grafik shakli haqida to'g'ri fikrlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi [Aubakirova & Zeinullina, 2019; 3]. Nazorat va baholash ta'lim olish rivojining eng muhim bo'g'ini hisoblanar ekan, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida atroflicha izlanishlar olib borish zarur. Uzoq yillardan beri pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ularning fikrlaricha, bahoning (1) ta'lim oluvchi o'zlashtirish darajasini qat'iy belgilovchi – sifat ko'rsatkichi; (2) u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi, kamchiliklarini ko'rsatuvchi ko'rsatkich ekanligi aniq belgilanishi zarur [To'xtaxo'jayeva va boshq., 2007; 57].

So'nggi paytlari "assessment" imtihonni o'rganish bilan chegaralangan faoliyat sifatida emas, balki ko'rsatmalarning bir qismi sifatida ko'rilmogda. Biroq shunga qaramay, o'qitish sifatini aniqlashdagi hal qiluvchi rolga qaramay, S.Palomba va T.Banta assessmentni "o'rganuvchilarning ta'lim olishi va rivojlanishini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilgan ta'lim dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli to'plash, ko'rib chiqish va ulardan foydalanish" deb hisoblashadi [Palomba & Banta, 1999].

Ushbu baholash tamoyillari tahlilidan so'ng, talabalarning chet tilida akademik yozuv malakasini baholashga kompetensiyaviy yondashuv nazariyasini ham o'rganib chiqamiz. Kompetensiya deganda insonning turli harakat va holatlarni bajarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va shaxsiy xislatlarining yig'indisi tushuniladi [Kreyer, 2007]. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan baholash talabalarning tayanch ko'nikmalari va asosiy til o'rganish kompetensiyalaridagi rivojlanishni baholaydi. Respublikamizda yaqin kunlarga baho sohasi kommunikativ kompetentlikka emas, balki talabalarning alohida til jihatlari va lingvistik bilimining shakllanishida aks etadigan oraliq nazorat bilan belgilanar edi. "Til o'rganish sohasidagi rivojlanish bilan bir qatorda, boshqa o'quv salohiyatini o'rganish bilan ham" dars o'tishning kommunikativ metodida xarakterlanadigan joriy baholashga asosiy e'tibor qaratilib kelingan [Matkarimova & Toshtemirov, 2017].

"Baholash kompetensiyasi esa yuqori va past sifatli assessmentning mazmuni haqida asosiy tushunchaga ega bo'lish va shu bilimni talabalarning o'zlashtirishlarini baholashda qo'llay olish qobiliyatidir", deb hisoblagan R.J. Stiggins, "baholash ekspertlari nimani va nima uchun nazorat qilishni yaxshi bilishadi, ular nazorat qilishda assessmentning eng yaxshi usullari, nazorat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni qay yo'l bilan hal qilish va bu muammolarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega kishilardir" [Stiggins, 1991], degan fikrni ilgari suradi. Yanada yangi ta'rifni 2011-yilda ushbu tushunchaga M.Sigel va K.Visser berishadi, bunda "o'qituvchilar nazariya va amaliyotni, ya'ni amaliyotda qo'llanadigan baholash metodlarini va assessment turlarini bilishlari lozim" [Siegel & Wissehr, 2011]. Baholash kompetensiyasiga yana bir ta'rifni bugungi tadqiqotchilarimizdan K.Muradkasimova shunday taqdim etadi: "Baholash kompetensiyasi – nazorat turlari va jarayoni haqida

nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish hamda assesmentni samarali tuzish, tashxis va tahlil qilish kompetensiyasidir" [Muradkasimova, 2019].

Bundan ko'rinib turibdiki, baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, talabalarga ta'lim jarayonida chet tilni ilmiy muhitda yozma qo'llay olish imkoniyatini berishga qaratilgan degan fikrga kelish mumkin. A. Hyuz o'z ilmiy ishida yozma nutq mahoratini tekshiruvchi test boshqa – o'qish yoki ijodkorlik qobiliyatlarini emas, balki faqat yozma nutq qobiliyatini sinovdan o'tkazishi kerak [Hughes, 2002; 255]. Yozma nazorat testi tayyorlashning eng qiyin qismi ham baholash mezonini ishlab chiqishdir. G.Braun talabalar bilimini nazorat qilish uchun 5 xil baholash tamoyilini taklif qiladi [Brown, 2004; 314].

O'qituvchi nazorat va to'g'ri yo'naltirish berishni to'g'ri tashkil eta olsa, ta'lim jarayonining takomillashuvi oshadi. Shu asnoda o'qituvchi talabaning o'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalarni o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim, ayniqsa, bu yozuv malakalari bilan bog'liq bo'lsa, yo'naltiruvchi rubrikalarni qo'llash juda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalarni baholash uchun yana boshqa natijalarni to'plash vositalari mavjud: nazorat varaqalari (*checklist*), reyting shkalasi (*rating scale*), sifat rubrikasi (*analytic rubric*) va yaxlit rubrika (*holistic rubric*) [Erickson, 2015]. To'g'ri baholash vositasini tanlash talaba va uning tushunchalarni tushunish va ko'nikmalarni o'zlashtirish yo'li bilan bog'liq bo'lganligi sababli, rubrikalar, ayniqsa, yozuv malakalarini baholashda samarali vosita bo'ladi, lekin har doim ham emas. Xo'sh, qaysi vosita eng foydali ekanligini qanday aniqlash mumkin? Bunga javob berish uchun ushbu turdagi baholashlar va ular qaytaradigan ma'lumotlar o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqish lozim. Demak, rubrika vositasi talabalarning yozma nutqqa oid bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishda juda qo'l keladi. Ya'ni, rubrika akademik ishlar, loyihalar yoki testlarni baholash yoki baholashning aniq mezonlarini ko'rsatadigan qo'llanma sifatida ta'riflanadi. A.Jonson va G.Svingbyu rubrika bilan bog'liq ilgari bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganib chiqishnatijasida quyidagi qator afzalliklarini ta'kidlaydilar:

- bilim olishda faollikni rag'batlantirish hamda ta'lim ko'rsatmalarini aniq tushuntirish xususiyatiga ega;
- o'zini o'zi baholash va talabaga taqdim etilgan qayta aloqa (*feedback*) faoliyatini yengillashtiradi, baholash mezonlarini aniqlashtiradi;
- baholovchilarga yozma nazorat ishlarini xolis baholashda (*internal consistency*) yordam beradi [Jonsson & Svingby, 2007].

2-jadval.

Yozuv malakalarini baholashda qo'llaniladigan asosiy baholash vositalari

Rubrika (Rubric)	Rubrika, bu – yozma ishning mezonlari yoki “nima muhim” (misol uchun maqsad, tashkiliy qism, tafsilotlar, lug'at boyligi va grammatika), shuningdek, har bir mezon bo'yicha sifat darajalarini a'lodan qoniqarsiz ko'rinishigacha ifodalaydi.
Nazorat varaqalari (Checklist)	Talabalar bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va talabalar o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi, talabalarning yozuv malakalaridagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdan iborat. Tekshiruv ro'yxatlari, odatda, talabalarning muayyan mezonlarni namoyish qilishiga nisbatan ha/yo'q formatini taklif qiladi.

Reyting shkalasi (Rating scale)	Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash va baholash, bunda muayyan o'lchov vositasi orqali ayni aspektlar haqida aniq o'lchov olish imkoniyati yaratiladi. Bunda talabalar ishining sifati yoki chastotasini tavsiflash uchun uchta yoki to'rtta javob tanlovini taqdim etadi.
---	---

Vazifa turlari in'ikosini baholashda rubrika va tezkorlik har bir yozma topshiriqning ikkita o'ziga xos xususiyati bo'lib, yozma ishlarni baholash uchun hisobga olinishi kerak. Tilshunos mutaxassislar L.He va L.Shi yozma topshiriq tarkibining sifati va miqdori har xil bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydilar, chunki mavzu bilan tanishish ko'plab dalillarni keltirib chiqarishi mumkin va umumiy mavzular yaxshi tashkil etish va kamroq lingvistik xatolarga olib kelishi mumkin [He & Shi, 2012; 443]. Ushbu masala sinf amaliyoti uchun tegishli ko'rsatmalarni ishlab chiqishni talab qilishi mumkin yoki tezkorlik va vazifadagi qiyinchilik ballarni sezilarli darajada o'zgartira olmasligi va shunchaki ijtimoiy talabga javob beradigan mavzular ballarning haqiqiylikiga rahna solishi mumkinligi bois ahamiyatsiz bo'lishi mumkin [Lim, 2010; 116].

TADQIQOT METODLARI

Umuman olganda, ushbu tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida nazariy (*tahliliy-sintetik, qiyosiy*), diagnostik (*kuzatish, suhbat, so'rovnom*) natijalarni umumlashtirish kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, tajriba-sinov ishlarining dastlabki aniqlovchi bosqichida talabalarining akademik yozuv malakasini baholashdagi mavjud holatlarni o'rganish, ayni malakani takomillashtirishda lozim bo'lgan materiallar bo'yicha aniqlash va o'quv-uslubiy ta'minoti: o'quv reja, namunaviy dastur, ishchi o'quv dasturi, o'quv adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalarni tahlil etish; o'qish va yozish dars mashg'ulotlarini kuzatish; talabalar o'rtasida anketa-so'rovnomalar o'tkazish etib belgilanganligi sababli tajriba-sinov ishlarida talabalarining yozuv malakasini baholash modelidagi baholash turlari va shakllari umumiy mezonga moslashtirildi.

Tadqiqot davomida tajriba-sinov maydonlarida o'rganilgan muammo bo'yicha umumiy ma'lumotga ega bo'lish maqsadida diagnostik (*so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish*) bosqichni tashkil etdik. Mazkur bosqichni tashkil etishdan maqsad pedagogik diagnostika obyektlarida muammo darajasini aniqlash va uning asosida tajriba-sinov ilmiy farazi, maqsad va vazifalarini aniqlash va metodik ta'minotning mavzularini shakllantirish bo'ldi. Binobarin, muammoli jarayonlardan biri sifatida hozirgi kunda ta'lim tizimining asosiy bo'g'iniga aylanib borayotgan ta'lim tizimida o'qitish metodikasining to'g'ri shakllantirilmaganligini qayd etishimiz joiz.

Kuzatishlar hamda o'rganishlar natijasida chet tillarining bo'lajak mutaxassislarini tayyorlovchi OTMLari talabalarining chet tilida *akademik insho, rasmiy xat, xulosa, hisobot* kabi yozma topshiriq turlarini aniq mezonlar ko'r-ko'rona baholash jarayonlari kuzatilmogda, shu sababdan tadqiqot doirasida amaldagi nazorat turlarining tashkillashtirilishi hamda ularni olib borilishiga talabalarining subyektiv munosabatini aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazildi. Shuningdek, olingan natijalar asosida akademik yozuv malakalariga doir baholash rubrikalari shakllantirildi.

Bundan ko‘zlangan maqsad talabalarning yozma ishlarini baholanish tartibiga bo‘lgan munosabatlari va uning natijadorlikka qo‘shayotgan hissasini aniqlash bo‘ldi. Ma‘lumki, yozuv malakasini baholash ko‘proq subyektiv xarakterga ega bo‘lib, bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning barchasi unga nisbatan obyektiv xarakterni singdirishdan iborat. Tadqiqot davomida mavzuga doir muammolar aniqlanib o‘rganildi va tahlil qilindi.

Tajriba-sinov maydonlari etib belgilangan OTMLarida “Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 342 nafar talaba orasida anketa so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma 18 ta aniqlovchi savoldan iborat bo‘lib, har bir gapga talaba uchun 1 dan 5 gacha bo‘lgan javoblar tanlovi mavjud (*1 = never* (hech qachon), *2 = usually* (odatda), *3 = rarely* (kamdan-kam), *4 = always* (har doim), *5 = sometimes* (ba‘zan) kabi). Savollar tasnifi esa quyidagicha:

1. *Men tengdoshlarimning yozma ishlari va badiiy kitoblarni o‘qish orqali yozma ishlarim uchun ko‘proq fikr olaman.*

2. *Menga muntazam har xil yozma ish topshiriqlari berilishi yoqadi.*

3. *Yozma ishlarimda grammatika hamda tinish belgilariga ko‘proq vaqt ajratishim kerak deb hisoblayman.*

4. *Menga yozma ishlarim xususida taqdimotlar o‘tkazish kabi topshiriqlar berilgan.*

5. *Guruh bilan ishlash yozma mahoratimni rivojlantiradi degan fikrdaman.*

6. *Men guruhdoshlar bir-birlarining yozma ishlarini o‘qib baholashi muhim deb hisoblayman, bu esa talabalarning faolligini oshiradi.*

7. *Men o‘qituvchimdan yozma topshiriq mavzusining muhimligini to‘g‘risida o‘zim uchun yetarli fikr-mulohazalarni olaman.*

8. *Yozma topshirig‘im to‘g‘risidagi og‘zaki fikr-mulohazalar (feedback) juda tez esimdan chiqadi, shuning uchun, menga yozma qayta aloqa kerak.*

9. *O‘qituvchi tomonidan oldindan tanishtirilgan baholash rubrikasi yozma topshiriqning mantiqiy xaritasini tuzishda yordam beradi.*

10. *O‘qituvchining darsni rejali olib borishi, har bir talabaga alohida vaqt ajratishi talabalarning yozma topshiriqlarga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.*

11. *Men o‘qituvchimdan mendagi akademik salohiyatni aniqlaydigan baholash rejasini oldindan bilishni xohlayman.*

12. *Fikr-mulohaza va kuzatish ingliz tilida akademik yozuv malakalarimning takomillashishi uchun motivatsiya va faollikni ta‘minlaydi.*

13. *Men fikrlarimni uzviy bog‘lashimga yordam beradigan ong xaritasini o‘rganishni istayman.*

14. *Biron-bir yozma asar (maqola)ni o‘qib, tushungan parchani yozish (hisobot) yozma nutqni rivojlantiradi.*

15. *Maqola, badiiy kitob, onlayn manbalar orqali yozishni samaraliroq o‘rganish uchun keng qamrovli bilim, ko‘nikma va texnikani o‘rgana olaman.*

16. *Internet manbalaridagi maqolalarni o‘qishim akademik yozuv ko‘nikmamni yaxshilashi mumkin.*

17. *Men yozma topshiriqlarda yo‘l qo‘yayotgan xato-kamchiliklarim uchun*

o'qituvchidan konstruktiv fikr olishni xohlayman.

18. Akademik yozma topshiriqlar ilmiy salohiyatimni aniqlashga yordam beradi, bu meni yozma nutqda ilmiy yoza olish malakamni takomillashtiradi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqotimizda tajriba-sinov ishlari ilmiy-pedagogik tadqiqotning ajralmas qismi bo'lib, avvalambor, izlanishlar natijalarining haqqoniyligi, amaliy ahamiyati hamda tatbiqiyiligini tasdiqlash muhim hisoblanadi. Tajriba-sinov ishining maqsadi olingan natijalarga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonining aniq muammolari yechimiga oid pedagogik va metodik tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim sifatini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir. Tajriba-sinov ishimizda tadqiqot avvalida ilgari surilgan g'oyani real sharoitda sinovdan o'tkazib, olib borayotgan ishimizda samarali ta'sir etuvchi omillar asosida yangi va ijobiy natijaga erishishga qaratilgan.

Xususan, maqolaning kirish qismida ta'kidlanganidek, talabalarining akademik yozuv malakalarini baholash uchun turli xil baholash vositalari mavjud bo'lib, misol uchun, "rubric" (rubrika), "checklist" (nazorat varaqasi) va "rating scales" (reyting shkalasi) shular jumlasidandir. Keltirilgan qiyosiy tahlillar natijasida to'plangan ma'lumotlar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, reyting shkalasi hamda rubrika analitik rubrikani tashkil qilsa, nazorat varaqalarining asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va talabalar o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi, talabalarining akademik yozuv malakalaridagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. Binobarin, akademik yozuv malakasini obyektiv baholashga xizmat qiladigan asosiy baholash vositasi bu – baholovchi rubrika ekanligi tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. Quyidagi jadvalda talabalar so'rovnomasi (anketa)dan olingan natijalar tahlili keltirilgan (3-jadvalga qarang).


3-jadval.

Talabalarining so'rovnoma (anketa) natijalari

J \ S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
Har doim	0	0	1	0	2	0	2	3	4	1	0	3	2	1	1	0	1	2
Hech qachon	5	2	5	2	2	5	5	9	1	4	5	4	3	7	5	4	5	4
Kamdan-kam	1	0	4	10	4	7	5	1	1	4	2	3	9	0	4	3	0	6
Ba'zan	9	10	5	5	8	7	3	1	8	6	9	6	4	9	5	5	4	4
Odatda	4	7	4	2	3	0	4	5	5	4	2	3	1	2	4	7	9	3

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, talabalar barcha savollarga o'z qarashlaridan kelib chiqib javob bergan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarining 6,73 foizi "har doim", 22,52 foizi "hech qachon" va 18,70 foizi "kamdan-kam" deb belgilashgan bo'lsa, boshqa tarafdin, 31,87 foiz talaba "ba'zan", boshqalari (20,16%) esa "odatda" degan javoblarni tanladi. Shu bilan birga, quyidagi jadval ishtirokchilarning har xil javoblarining foizi haqida umumiy ma'lumot beradi (4-jadvalga qarang).

Ushbu jadvalning gistogramma ko‘rinishini ham quyida tahlil qilamiz:



4-jadval.

Talabalar javoblarining foizdagi ifodasi

Javoblar	Foiz
Har doim	6,73%
Hech qachon	22,52%
Kamdan-kam	18,70%
Ba'zan	31,87%
Odatda	20,17%

Shunday qilib, talabalarining ingliz tili bo‘yicha akademik yozuv ko‘nikmasini baholash, yozma topshiriq mavzularining sifati, ularning o‘tilgan mavzuga mos yoki mos emasligi, ingliz tilida akademik yozma malakalarni shakllantirishga bo‘lgan munosabati va belgilangan vazifalarni qay darajada o‘zlashtirganliklari hamda mustaqil amalga oshirishlari borasidagi fikrlari o‘rganildi. Xususan, ularning baholash jarayonidan qay darajada qoniqish hosil qilishlari mustaqil tarzda vazifalarning bajarilishini kuzatish orqali amalga oshirildi va quyidagi xulosalarga kelindi.

“Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kam foizi yozma ish baholari haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasligini bildirdi. Ayni natija subyektiv munosabatni aks ettirishiga qaramasdan, uning natijalari baholashni tashkillashtirishdagi bir qator muammolarni yuzaga chiqaradi: mashg‘ulot mobaynida o‘zlashtirilgan bilim oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi natija olish uchun yetarli bo‘lmaydi. Jumladan, so‘rovnomalar tahlili doirasida olingan natijalarga ko‘ra aytishimiz mumkinki, dasturlar, baholash mezonlari va qo‘yiladigan talablar talabalarga semestr boshida taqdim qilinsa, ko‘zlangan natijaga ma’lum ma’noda erishiladi va ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, kuzatuv va so‘rovnomalar tahlilidan so‘ng, talabalarga akademik yozma nutqni o‘zlashtirishda eng ko‘p to‘sqinlik qiladigan omillar – ko‘nikma va malakalarning yetarli darajada shakllanmaganligi, baholashning aniq mezonlarga asoslanmaganligi va mustaqil

izlanishga bo‘lgan moyillikning yetishmasligi deb hisoblashlaridir.

So‘rovnomadagi ko‘pgina talabalarining fikriga ko‘ra, ular baholashda ularni nima kutayotganlarini bilganlaridagina samarali baholash juda muvaffaqiyatli bo‘ladi deb ta’kidlaganlar. Shubois, o‘qituvchilar standartlar va kutilayotgan natijalarni aniq belgilashlari kerak. Qisqachasi, talabalar rubrikalar bilan tanishganlari sari, ular rubrikalarni loyihalash jarayoniga ham yordam berishlari mumkin. Bu ishtirok talabalarga kuch beradi va buning natijasida ularning ta’lim olishlari ko‘proq ijobiy tomonga yo‘naltirilgan bo‘ladi va o‘z-o‘zlarini boshqara oladilar. Biz taklif qilayotgan bu ta’lim metodi ayniqsa masofaviy ta’limda samaraliroq kechadi.

O‘qituvchi talabalarining chet tilida yozuv malakalarining kuchli va zaif tomonlarini baholash jarayonini ularning yozma ishlarini diqqat bilan kuzatib borish, talabalarining ehtiyojlariga ko‘ra aniq mahorat va strategiyalarni o‘rgatish, yangi o‘rganilgan ko‘nikmalarni mustahkamlash va takrorlanadigan muammolarni to‘g‘irlashga qaratilgan mulohazalarni bildirish orqali amalga oshiradi. Mazkur majburiyatlar tekshiruvdan so‘ng baholashning yaxshi ko‘rsatmalarning ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydi. Shu tariqa biz boshqa omillarga qo‘shimcha ravishda quyidagi shartlar va talabalarining yutuqlari bilan baholashning o‘zaro bog‘liq ekanligini aniqladik (5-jadvalga qarang).

5-jadval.

Tajriba-sinov natijalariga oid fikr-mulohazalar	Ularning yechimi
Ingliz tilida akademik bilim, ko‘nikma va malakalarning yetarli darajada shakllanmaganligi.	Talabalarining semestr boshida dastur, baholash mezonlari va rubrikalar bilan oldindan tanishishlarini ta’minlash.
Joriy nazorat materiallari bilan yakuniy nazorat topshiriqlarining nomutanosibliigi.	Berilayotgan yozma topshiriq mavzularini tuzishda aniqlikka e’tibor qaratish.
Talabalarining yozma ishlarini baholashda aniq, obyektiv mezonlarga asoslanmaganligi, ularning mazkur mezonlardan bexabarligi.	O‘qituvchilarning talabalar yozma ishlarini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda baholash (bunda baholash rubrikalari, nazorat varaqalarini mavzu ko‘lami hamda yozma topshiriq turiga ko‘ra to‘g‘ri shakllantirish).
Talabalarda mustaqil izlanishga bo‘lgan moyillikning yetishmasligi.	Talabalarga ularni qiziqtirgan mavzu doirasida mustaqil izlanishlar olib borishlari yo‘lida shartsharoitlar yaratish.

Talabalarining o‘zlashtirgan bilim va kompetensiyalarini baholashning turli mexanizmlari, instrumentlari va metodlari takomillashib, rivojlanib borayotganini hamda ayni jarayonga ham kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan e’tibor qaratilayotganligini alohida qayd etishimiz lozim. Ayniqsa, baholashning muqobil yo‘llari va uslublari talabalarining ehtiyojlari, manfaatlari va strategiyalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olib, amalda barcha chora-tadbirlar baholash hamda kognitiv faoliyatni birlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu haqida G.Frank talabalarni test uchun taklif qilinayotgan mavzularga, shuningdek, testlarni talabalar tomonidan ishlab chiqilishini tavsiya qilgan [Giraldo, 2014]. Bundan tashqari, mazkur fikrning mantiqiy davomi sifatida tadqiqotchi D.Rojer "...o‘qituvchilar talabalar bilan o‘zaro fikr almashishlari, muhokama-munozara qilishlari, shuningdek, o‘zlarining baholash

mezonlari bilan o'rtoqlashishlari, o'zaro hamkorlik qilishlari kerak, chunki bu ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi", deya fikr bildirgan [Rogier, 2014].

O'qituvchilar o'zlari tuzgan testlar ustida fikr-mulohaza yuritishlari hamda talabalarga berilgan testlardan olingan natijalarni tahlil qila bilishlari lozim, shundagina ular adolatli baholash natijasiga erishadilar. N.N. Bacha olib borgan xuddi shu mavzudagi tadqiqot ishida o'qituvchilar asosli va ishonarli yozma nazorat ishlarini takomillatirish borasida izlanishlari kerak, chunki bu keyinchalik qo'yilgan baho bilan bog'liq talaba va o'qituvchi o'rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi. Buning uchun til o'rganuvchilarning nima qila olishlari va nima qila olmasliklari haqidagi bilimlarini oshirish kerak. Shunda talabalar o'z qobiliyatlarini anglab, o'zlari uchun o'zlari qayg'uradilar va zaif tomonlarini takomillashtirish ustida ishlay boshlaydilar [Bacha, 2002].

Yozma ish, agar u kerakli o'lchamda, mantiqiy va izchil bo'lsa va o'qiladigan formatga ega bo'lsa, kommunikativ maqsadini amalga oshira oladi. Agar u yaxshi tuzilgan jumlar va muallifning fikrini aniq yetkazadigan kerakli so'zlardan iborat bo'lsa, o'qish juda sermahsul bo'ladi. Yozuvning turli xil konseptual modellari yonma-yon taqqoslanganda beshta o'zgaruvchan mezon paydo bo'ladi: *ravonlik*, *mazmun*, *kelishuvlar*, *sintaksis* va *so'z boyligi*. Ko'pincha o'qituvchilar o'zlarining e'tiborlarini asosan yozishning mexanik jihatlari yoki konvensiyalar bilan bog'liq bo'lgan talabalar kompozitsiyasining sirtqi xususiyatlariga qaratadilar. Har tomonlama muvozanatni saqlovchi baholash uchun talaba yozishining barcha besh jihatlarini ko'rib chiqishi kerak. Negaki, analitik o'lchov bu tarkibni baholash uchun obyektivlik berishning eng yaxshi usuli. Umumiy reyting shkalasidan ular deyarli har qanday yozish topshirig'iga mos keladigan yoki ma'lum bir janr yoki matn tuzilishiga mos ravishda tanlanishi mumkin.

Respublikamiz ta'lim kontekstida esa uslubiy fikrlar tahlili asosida hozirgacha asosiy e'tibor chet tilida yozma fikr bildirishda ijodiy fikrlash va qobiliyatga emas, aksincha undagi imlo va grammatik to'g'rilikka qaratildi, deb xulosa qilishimiz mumkin. Ayniqsa, chet tili dars mashg'ulotlarida yetarlicha e'tibor berilmayotgan jihat yozuvning ilmiy tomoni hisoblanadi. Talabalarning akademik yozma nutq kompetensiyasi ko'pincha yozma nutq faoliyatining boshqa turlariga qaraganda o'qitish jarayonida ancha orqada qoladi. Akademik yozuv malakalarini chet tilida ham ravon ifoda eta olishni o'rgatishdan maqsad, avvalambor, talabalarning yozma kommunikativ kompetentligini shakllantirgan holda, ularda muayyan ilmiy mavzuga oid qarashlar va fikrlar ichida argumentlarni shakllantira olish, o'zga olimlar, mutaxassislar va shaxslarning ishlarini sintez, parafraza qila olish, iqtibos keltira olish, mantiqiy argumentlar tuza olish, annotatsiyani yozma ifodalay olish hamda qarama-qarshi fikr va mulohozalarni yozma ravishda muhokama qila olish ko'nikmalariga ega yetuk kadrlarni tayyorlashdir.

XULOSA

Shunday qilib, bugungi kunda chet tillarni o'qitishning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish bo'lajak ingliz tili

o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini, xususan, ularning yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash xususiyatlarining o‘rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Baholashning yuqori darajada ishonchliligini ta’minlash uchun har bir til ko‘nikmasini alohida baholash zarurligi chet tilini bilishning alohida jihatlarining o‘ziga xosligini hisobga oluvchi turli usul va metodlarni joriy qilishga olib keladi. Har bir ko‘nikmani baholash uchun tegishli shkalalar va baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim. Yozish topshiriqlarida nazoratning maqsadi – talabalarning ingliz tilida ilmiy yoza olish mahoratini oshirish, talabalarning chet tilidagi yozuv malakalarini o‘zlashtirish darajalarini, amaldagi qiyinchilik va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etgan holda talabalarning yozishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish hisoblanadi. Ta’lim jarayonida aniqlashtirilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazorat jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, olib borish va natijalarni tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni mahsuldor tashkillashtirish uchun o‘qituvchilar kurs maqsadi bilan nazorat maqsadini chambarchas bog‘lashlari, shuningdek, nazorat turlarini tuzish davomida baholash tamoyillari hisoblanuvchi samaradorlik, ishonchlilik, yaroqlilik, qayta aloqa va autentlikka rioya qilishlari kerak. Jumladan, bugungi kun ta’lim tizimiga kredit-modul tizimining joriy qilinganligi, uning vositasida turli ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda amalda yo‘l qo‘yilayotgan xato-kamchiliklarni ko‘rsatib bera olish, “Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning akademik yozuv malakasi, yozma nutq faolligi hamda undagi kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish eng birlamchi talablardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli qarori. (2021-yil 19-may). O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida. *Lex.uz*. <http://lex.uz/en/docs/-5426736>.
2. Alimov, F.Sh. (2018). Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida). *Ped. fan. fals. dok. diss. avtoref.* Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
3. Aubakirova, G.T., & Zeinullina, D.N. (2019). Development of academic writing skills at students. *European Science*, 6(48), 50–53.
4. Bacha, N. (2002). Testing writing in the EFL classroom: Student expectation. *English Teaching Forum*, 40(2), 14–19.
5. Bailey, S. (2014). *Academic writing: A handbook for international students* (4th ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315768960>.
6. Behizadeh, N., & Engelhard, G. (2011). Historical view of the influences of measurement and writing theories on the practice of writing assessment in the United States. *Assessing writing*, 16(3), 189–211.
7. Brown, G.T.L. (2004). Teachers’ conceptions of assessment: implications for policy and professional development. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 11(3), 301–318. <https://doi.org/10.1080/0969594042000304609>.
8. Erickson, K.L. (2015). Why use a rubric when a checklist will do?. *Onestopdramashop.com*. <https://onestopdramashop.com/blog-posts/why-use-a-rubric-when-a-checklist-will-do/>.
9. Freedman, A., Pringle, I., & Yalden, J. (2014). *Learning to write: First language/Second language* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315835921>.

10. Freeman, R., & Lewis, R. (1998). *Planning and implementing assessment* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315041858>.
11. Gal'skova, N.D., & Gez, N.I. (2005). *Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika* (2-ye izd.). Moskva: Academia.
12. Giraldo, F. (2014). The impact of a professional development program on English language teachers' classroom performance. *Profile Issues in Teachers' Professional Development*, 16(1), 63–76.
13. He, L., & Shi, L. (2012). Topical knowledge and ESL writing. *Language Testing*, 29(3), 443–464. <https://doi.org/10.1177/0265532212436659>.
14. Hughes, A. (2002). *Testing for language teachers* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
15. Jonsson, A., & Svingby, G. (2007). The use of scoring rubrics: Reliability, validity, and educational consequences. *Educational Research Review*, 2(2), 130–144. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2007.05.002>.
16. Kolesnikova, I.L., & Dolgina, O.A. (2008). *Anglo-russkiy terminologicheskii spravochnik po metodike prepodavaniya inostrannykh yazykov*. Moskva: Drofa.
17. Kreyer, M.Ya. (2007). Kriterii otsenki inoyazychnoy pis'mennoy rechi uchashchikhsya v starinnoy shkole-vuz: na materiale angliyskogo yazyka. *Avtoref. diss. kand. ped. nauk*. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy universitet.
18. Lim, G.S. (2010). Investigating prompt effects in writing performance assessment. *Spann Fellow Working Papers in Second or Foreign Language Assessment*, 8, 95–116.
19. Markova, Yu.Yu. (2011). Metodika razvitiya umeniy pis'mennoy rechi studentov na osnove viki-tehnologii: angliyskiy yazyk, yazykovoy vuz. *Avtoref. diss. kand. ped. nauk*. Moskva: Tambovskiy gosudarstvennyy universitet imeni G.R. Derzhavina.
20. Matkarimova, A.I., & Toshtemirov, E.N. (2017). Assessment in teaching a foreign language. *Molodoy uchenyy*, 5(139), 432–434.
21. Mil'rud, R.P. (1997). Metodika obucheniya inoyazychnoy pis'mennoy rechi. *Inostrannyye yazyki v shkole*, 2, 5–11.
22. Muradkasimova, K.Sh. (2019). Ingliz tilini o'qitishda talabalarning ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari. *Ped. fan. fals. dok. diss. avtoref.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
23. Najim, A.J. (2020). *A study of new hello course for Egyptian preparatory school – 1st Term*. Baghdad: University of Baghdad.
24. Palomba, C.A., & Banta, T.W. (1999). *Assessment essentials: planning, implementing, and improving assessment in higher education*. San Francisco, CA: Jossey-Bass Publishers.
25. Passov, Ye.I. (2000). *Programma – kontseptsiya kommunikativnogo inoyazychnogo obrazovaniya*. Moskva: Prosveshcheniye.
26. Rogier, D. (2014). Assessment literacy: Building a base for better teaching and learning. *English Teaching Forum*, 52(3), 2–13.
27. Siegel, M.A., & Wissehr, C. (2011). Preparing for the plunge: Preservice teachers' assessment literacy. *Journal of Science Teacher Education*, 22(4), 371–391. <https://doi.org/10.1007/s10972-011-9231-6>.
28. Stiggins, R.J. (1991). Assessment literacy. *Phi Delta Kappan*, 72, 534–539.
29. To'xtaxo'jayeva, M.X., Ashirboyev, S., Hasanboyev, J. (2007). *Pedagogika nazariyasi va tarixi: Pedagogika nazariyasi* (2-qism). Toshkent: "Universitet" nashriyoti.
30. Zinder, L.R. (1979). *Obshchaya fonetika*. Moskva: Vysshaya shkola.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5117. (2021, May 19). About measures to bring the activity of popularization of learning foreign languages to a qualitatively new level in the Republic of Uzbekistan. *Lex.uz*. <http://lex.uz/en/docs/-5426736>.

2. Alimov, F.Sh. (2018). Formation of writing competence in English (in the case of non-philological faculties). *Abs. PhD thes. ped. scien.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
3. Aubakirova, G.T., & Zeinullina, D.N. (2019). Development of academic writing skills at students. *European Science*, 6(48), 50–53.
4. Bacha, N. (2002). Testing writing in the EFL classroom: Student expectation. *English Teaching Forum*, 40(2), 14–19.
5. Bailey, S. (2014). *Academic writing: A handbook for international students* (4th ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315768960>.
6. Behizadeh, N., & Engelhard, G. (2011). Historical view of the influences of measurement and writing theories on the practice of writing assessment in the United States. *Assessing writing*, 16(3), 189–211.
7. Brown, G.T.L. (2004). Teachers' conceptions of assessment: implications for policy and professional development. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 11(3), 301–318. <https://doi.org/10.1080/0969594042000304609>.
8. Erickson, K.L. (2015). Why use a rubric when a checklist will do?. *Onestopdramashop.com*. <https://onestopdramashop.com/blog-posts/why-use-a-rubric-when-a-checklist-will-do/>.
9. Freedman, A., Pringle, I., & Yalden, J. (2014). *Learning to write: First language/Second language* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315835921>.
10. Freeman, R., & Lewis, R. (1998). *Planning and implementing assessment* (1st ed.). London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315041858>.
11. Galskova, N.D., & Gez, N.I. (2005). *The theory of teaching foreign languages. Lingvodidactics and methodology* (2nd ed.). Moscow: Academy.
12. Giraldo, F. (2014). The impact of a professional development program on English language teachers' classroom performance. *Profile Issues in Teachers' Professional Development*, 16(1), 63–76.
13. He, L., & Shi, L. (2012). Topical knowledge and ESL writing. *Language Testing*, 29(3), 443–464. <https://doi.org/10.1177/0265532212436659>.
14. Hughes, A. (2002). *Testing for language teachers* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
15. Jonsson, A., & Svingby, G. (2007). The use of scoring rubrics: Reliability, validity, and educational consequences. *Educational Research Review*, 2(2), 130–144. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2007.05.002>.
16. Kolesnikova, I.L., & Dolgina, O.A. (2008). *English-Russian terminological reference book on methods of teaching foreign languages*. Moscow: Drofa.
17. Kreer, M.Y. (2007). Criteria for assessing foreign language written speech of students in the old school-university: based on the English language. *Abs. diss. cand. ped. scien.* Saint Petersburg: Saint Petersburg State University.
18. Lim, G.S. (2010). Investigating prompt effects in writing performance assessment. *Spann Fellow Working Papers in Second or Foreign Language Assessment*, 8, 95–116.
19. Markova, Y.Y. (2011). Methodology for developing students' written speech skills based on wiki technologies: English language, language university. *Abs. diss. cand. ped. scien.* Moscow: Tambov State University named after G.R. Derzhavin.
20. Matkarimova, A.I., & Toshtemirov, E.N. (2017). Assessment in teaching a foreign language. *Young Scientist*, 5(139), 432–434.
21. Milrud, R.P. (1997). Methods of teaching foreign language written speech. *Foreign Languages at School*, 2, 5–11.
22. Muradkasimova, K.Sh. (2019). Features of assessment of students' skills and competencies in English language teaching. *Abs. PhD thes. ped. scien.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
23. Najim, A.J. (2020). *A study of new hello course for Egyptian preparatory school – 1st Term.*

- Baghdad: University of Baghdad.
24. Palomba, C.A., & Banta, T.W. (1999). *Assessment essentials: planning, implementing, and improving assessment in higher education*. San Francisco, CA: Jossey-Bass Publishers.
 25. Passov, Y.I. (2000). *Program – concept of communicative foreign language education*. Moscow: Education.
 26. Rogier, D. (2014). Assessment literacy: Building a base for better teaching and learning. *English Teaching Forum*, 52(3), 2–13.
 27. Siegel, M.A., & Wissehr, C. (2011). Preparing for the plunge: Preservice teachers' assessment literacy. *Journal of Science Teacher Education*, 22(4), 371–391. <https://doi.org/10.1007/s10972-011-9231-6>.
 28. Stiggins, R.J. (1991). Assessment literacy. *Phi Delta Kappan*, 72, 534–539.
 29. Tokhtakhojayeva, M.Kh., Ashirboyev, S., Hasanboyev, J. (2007). *Pedagogical theory and history: Pedagogical theory (Part 2)*. Tashkent: University.
 30. Zinder, L.R. (1979). *General phonetics*. Moscow: Higher School.